

FITRATNING OILA TARBIYASIGA DOYR FIKRLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Safarova Malika Muzaffarovna

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Osiyo Xalqaro Universiteti magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11124752>

Tarixan shakllanib kelgan oila tarbiya jarayonida kattalarni xurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod xakida g'amxurlik qilish kabi tarbiyaning qat'iy qoidalari bulib kelgan. Bu borada buyuk mutafakkirlarimiz uzok vaqt izlanish va tajribalar olib borganlar. Asosan, X asr donishmandi Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi bilan avvalo oila, ota-ona shug'illanmog'i lozim, deb uqtirgandi. Chunki oilada olingan tarbiya farzandning qalbi va ongiga singib, xotirasida uzoq vaqt saklanib qoladi.

Jadidchilik xarakatining ilg'or vakillaridan biri bola tarbiyasi asoslari xakida suzlaganda eng avvalo oilaviy tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor qaratadi.

Fitrat bu xaqda shunday yozadi: «Ma'lumki, odam birinchi tarbiyani onasining bag'rida oladi. Shu narsa muqarrarki, birinchi tarbiya (oila tarbiyasi) tarbiyaning eng muximi xisoblanadi. Chunki ta'siri odam tabiatiga mustaxkam urnashadi. Shaxs ruxiyati, axlok gavxari va odatlari bolaligidanok shakllanadi»¹. Demak, Fitrat nazarida oilaviy tarbiya, tarbiyaning eng muxim qismi» va bu tarbiya jarayonida shaxs uch jixatdan shakllanadi: ruxiy, axlokiy va odatiy (xarakter). Bu tushunchalarni biz Fitratning bola tarbiyasi asoslariga oid birinchi fikri sifatida qabul qilamiz. Xaqiqatan xam bola oilada ilk shakllana boshlaydi, dastlabki axloqiy tushunchalarni qabul qiladi va birinchi qiliqlarini (xarakter xususiyatlarini) shakllantiradi. Bu davrni olimlarimiz samimiy «taqlid davri» va milliy tarbiyaning asosi deb ataydilar. Fitrat xam bu masalani izoxlagach, oilaviy tarbiyada nimalarga e'tibor berish va uning asoslari nimadan iborat ekanligini sharxlashga ugadi.

Fitratning fikricha, oilada bola tarbiyasi onaning xomladorlik—davridan boshlanadi. Fitrat ta'kidlaydi, «Ona qornida bola paydo bulgandan sung uning xayot-momoti ota-onaga bog'liq. Shuning uchun ular bolaning xar tomonlama nobud bulishiga olib keladigan ishlarni qilmasliklari shart». Shundan sung Fitrat xomilador onaning parvarishi va bu parvarishning bulg'usi onaga ta'siri sof ilmiy —tibbiy uslubda quyidagicha yozadi. «Og'ir oyoqlik vaktida ayollarni xonada yolg'iz qoldirish, og'ir ishlarni buyurish, umuman tug'ri emas. xomilador bulgan xotinlarni yolg'iz qoldiradigan yoki og'ir ishlarni buyurib, ularga yordam bermaydigan erkaklar uz farzandlarining joniga qasd qilgan buladilar. Xomiladorlikning ikkinchi oyidan boshlab er xotiniga yakinlashmasligi lozim. Bu masalada xayvonlar bizlardan yaxshirok. Ularning extiyotliklari bizlardan kuprok. Ular xomiladorligi vaktida uz juftiga yakinlashmaydilar»². Lekin biz odamlar, shaxvatparastlik darajasida xayvonlardan utib ketamiz.

Sabrsizligimiz shu darajaga yetganki xomiladorlik vaktida xam xotinlarimizga tinchlik yuq. Yarim soatlik bema'ni lazzatimiz uchun aziz farzandimizni xam ayamaymiz. Ikki oylikdan turt oygacha jimo vaktida bola tushurish xavfi kup buladi, turt oydan keyin bu xatar kamrok bulsa xam yuqolmaydi. Turtinchi oydan keyin bola ancha katta buladi. Visol vaktida bola mayib

¹ Fitrat A. Oila. Fors tilidan Sh.Vohidov tarjimasi. -Toshkent:Ma'naviyat, 1998.-B.51-52.

² Fitrat A. Oila. Fors tilidan Sh.Vohidov tarjimasi. -Toshkent:Ma'naviyat, 1998.-B.55.

bulishi mumkin. Bas, ikkinchi oyligidan xotinga yakinlashmaslikni maslaxat beramiz. Agarda erkaklar shaxvatlari bu qoidaga rioya kilmasdan o'z farzandlarini nobud qilmokchi bulsalar xam, xotinlari bunga yul bermasliklari lozim. Xomilador ayollar shu vaqtda juda nozik buladilar. Xar xil baxonalar bilan xafalanib g'amgin buladilar. Bu qayg'urish xaddan ziyod bulsa, bola tushurishga sabab buladi. Shuning uchun xam xomiladorlik vaktida erkaklar o'z xotinlarini ayab — ardokab, ra'ylariga qarashlari lozim, xech bir bahona bilan ularni xafa kilishlari mumkin emas. Kamquvvatlik xam bola yuqotishga sabab buladi. Buning oldini olish uchun ona kuproq baxavo joylarda bulib, tez xazm buladigan kuchli, masalan, sut, parranda go'shti, tuxum iste'mol qilishlari zarur. Palov, quruq non kabi badxazm ovkatlardan parhez qilishlari lozim. Kasal bulgan xolda o'tkir duxtirlarga murojaat qilib, uzlarini davo qilishlari zarur». Bu usha davr uchun uziga xos bir ma'rifiy saboq edi. Bu urinda Fitratning xomilador onani psixologik jixatdan avaylash va buning bola ruxiyatiga ta'siri tug'risida fikri diqqatga sozavor. Misol uchun u xomilador onaga «Qurquv yoki qayg'u-g'am bo'lsa u albatta bolaga utadi», deydi³.

Shunday qilib Fitratning fikricha, bolaning sog'lom tarbiyasini yulga quyish uchun xomilador onaning parvarishidan ish boshlash lozim. Bu Fitratning bola tarbiyasi asoslari xaqidagi ikkinchi Fikridir. Kizig'i shundaki, Fitrat bu borada turli diniy va nodiniy irim - sirimlarni tanqid qilib, aksincha ilmiy -tibbiy mutaxassislarga ota -onani xavola qiladi. Butun bu bir qadar oddiy tuyuladi. Lekin bu xol usha XX asr boshlaridagi sharoit uchun yangilik va dunyoviy taraqqiyot uchun yuz burish edi. U ugit qilib deydi: «Bola olamga kelish soatlarida yer boshini maxalla kampirilarining joxilona mashvaratlari bilan band etmasdan, shaxarning eng joxillaridan bo'lgan doyalarga ishonmasdan, tezlik bilan o'tkir duxtirlarning birortasini doyalik uchun da'vat etsin». Shu o'rinda Fitrat o'z fikrining isboti sifatida quyidagi xayotiy misolni keltiradi: «Kecha menga iltifoti bulgan shaxrimiz a'yonlarining uyida mexmon edim. Suhbat chog'ida ul muxtaram zot bir voqeani bayon qildi. Agarda biz buxoroliklarni ibrat oluvchi kuzlarimiz bulsa, bu xikoyadan, albatta, biror foyda olamiz. Xudovanda karim shu yakinlarda ul zoti muxtaramga bir farzand ato qilgan ekan. Bu shaxs uyida bulmaganida xotinini dard tutibdi. Ikki-uch ayol jam bulib, uzaro maslaxatlashib falon «momodoya»ni olib kelibdilar. Usha nodon kampir xomilaning vaziyatini yengillatish urniga ancha noma'qul ishlarni qilib, 20 tanga va xam bir liboslik buzni olib ketibdi. Eri qaytib kelib, xotinining axvolini kurib, duxtir olib kelibdi. Duxtir bemorni tekshirib shunday debdi: «Qaysi bir nodon aralashib bolaning joylashishini uzgartiribdi. Yuldoshi buyniga uralib bola o'libdi. Onasining xayoti xam xatarda». Duxtir dori berib ketibdi. Dori iste'molidan sung jonsiz bola olamga kelibdi, lekin...onasi esa bemor»⁴. Bu xayotiy misol Fitratning fikrini yanada yorqinroq kursatib bergan.

Fitrat yozadi: «Oilada eng og'ir vazifa bola tug'lgandan keyingi farzand tarbiyasidir. Farzand tarbiyasi aslida ikki kalimadan iborat, shuning uchun xam nazaringizda juda mayda muammodek kurinadi. Lekin dono odamlar biladilarki, Bani Odamning siyosiy, diniy, ijtimoiy usishining asosi ana shu ikki suz — «bola tarbiyasi» dan iborat birikmaga bog'lik. Bu xalkning xarakati. davlatmandligi. baxtililigi. Jaxongir bulishi yoki zaifligi, Fakirligi, baxtsizligi, uzgalarga

³ Ismoilova X. Syennosti semi Abdurauf Fitrata v «prosedurax semi ili upravleniya semyey» //Общественно-педагогический журнал. – 2021. – Т. 2. – №. 9/5. – С. 266-271.

⁴ Qosimov B. Fitrat // "San'at" jurnali. 1991. №12. – B. 10-13.

tobe, qul va asir bulishi — bolalikda uz ota – onalaridan olgan tarbiyalariga bogʻlik»⁵. Shunday qilib, Fitratning bola tarbiyasi asoslari xakidagi uchinchi fikri maqsadli tarbiya olib borishdan iborat. Maksadli tarbiya olib borish natijasida Fitratning fikricha, «40 million ingliz 400 million xindiy va afrikalik ustidan xokim. Chin xukumati 400 million axolisi bilan 40 million yaponning uyingoxiga aylangan». Demak, maksadli tarbiya nafakat shaxs manfaatiga, balki bir millat va jamiyat manfaatlarini ruyobga chikarishga xizmat qiladi. Shu sababli Fitrat deydi: «Endi kelinglar, kuraylikchi, biz musulmonlar, xususan turkistonliklar oʻz farzandlarimizga tarbiya oladi, yaʼni «yuk»!

Men buni shunday isbot qilaman: Biz turkistonliklar bolalarimizdan kura mollarimizga kuproq qaraymiz...Dalilim shuki, kimning uyida moli bulsa, tekshirsa kuradiki, yil davomida uning mollaridan bittasi xam kasal bulmagan, ammo farzandi xech bulmasa uch marta xastalikka chalingan. Bas, maʼlum buladiki, u kishi farzandidan kura molining kasal bulmasligiga eʼtibor bergan». Fitrat man shunday oʻz davrining kamchiliklarini ayovsiz tanqid qilish bilan zamondoshlarini farzand tarbiyasiga yetaklaydi. Bunday xayotiy va oddiy dalillar usha davr kishilarining muammoning idrok qilishlarida asqottan, albatta⁶.

Fitrat asarini yozgan XX asrning I choragi Turkistonda ijtimoiy xayot nixoyatda murakkab edi. Bir tomondan, Chor Rossiyasi mustamlakani kuchaytirish uchun shovinizm xarakatini chuqurlashtirar va uzlariga sadoqatli kishilarni voyaga yetkazish uchun milliy mentalitetga yot bulgan «Russkogo-tuzemnogo shkola»larni zur berib targʻib qilar edi. Ikkinchi tomondan, Turkiston ulkasida milliy sanoatchilik yuk uchun ijtimoiy taraqqiyotdan orkada kolayotgan edi. Uchunchi tomondan, yurtimizning boy — badavlat va ziyoli kishilarining «kuzi ochilishi» kiyin kechayotgandi. Mana shu omillar sabab bizda tarbiya masalasi murakkablasha boshlagandi. Fitrat kabilar bu jaxolatga qarshi kurashga kirishdi. «Urningizdan turingda, ximmat va xikmat kamarini bogʻlang!»⁷, - deb daʼvat qiladi u.

Fitratning fikricha, bola tarbiyasi asoslaridan biri bu yurt ziyolilarining (tarbiya kishilarining) saviyasiga xam bogʻlik boʻladi. Shu sababli u uz davri ziyolilarining kamchiligini qattik tanqid qiladi: «...Mullalarning fikriy tarbiyalari yaxshidek kurinadi, yaʼni ularning aqliy kobiliyatlari boshkalarnikidan falqliroq va fikrlari boshqalarnikidan sogʻlomroqdir. Vaxolanki, ularning xar biri yigirma — uttiz yil umrlarini madrasalarda taxsil bilan utkazdilar, lekin uqiganlarini sizlarga tushuntirib bera olmaydilar. Mabodo biron narsani tushuntirmoqchi bulsalar xam arabcha suzlardan nutqlarini shunday tuldirib tashlaydilarki, ammo bu nutqni tushunmaydi. Ularning suzlarini rad etsangiz, darrov taxqir va xaqoratga utadilar, joxil va kofirlikda ayblaydilar»⁸.

Shunday qilib Fitrat tarbiyali tarbiyani bola tarbiyasida shart qilib quyadi. Bu uning -turtinchi fikridir. Fitrat nazdida, bunday tarbiya millat tabiatidan kelib chikuvchi, mavjud sharoitlar xisobga olinib olib boriladigan tarbiyadir. Unda, kasbidan qatʼiy nazar xar bir kishi kerakli maʼlumot va tushunchalarga ega buladi. Uningcha, ajnabiy suzlarni qalashtirib saboq berish bola tarbiyasini buzadi, aqlini utmaslashtiradi. Bundan tashqari, u maqsadli tarbiyada mavjud sharoitlardan kelib chiqib ish olib borish lozimligi xaqida gapirar ekan, jumladan shunday deydi: «Yurgakni qattiq bogʻlamasdan, goʻdak qullarini ochib quyish lozim. Beshiklar xam

⁵ Rajabov Q. XX asr boshlarida Turkiston yoshlari // “Huquq va burch”, 2008, № 1. – B. 40-43, № 2. – B. 35-37.

⁶ Rizayev Sh. Maʼrifatparvarlikdan maʼrifatchilikka // “Tafakkur”. (Toshkent), 1995, № 1. – B. 74-79.

⁷ Fitrat. Himmat va saboti boʻlmagan millatning haqqi hayoti yoʻqdir // “Oyina” jurnali. 1915. №7. – B. 8-9.

⁸ Fitrat A. Oila. Fors tilidan Sh.Vohidov tarjimasii. -Toshkent:Maʼnaviyat, 1998.-B.85.

zindondan qolishmaydi. Beshikda bolaning qul oyog'ini shunday bog'laymizki, bechora go'dak qimirlay olmaydi. Sungra ustini qalin govrapushlar bilan yopamiz. Xulosa: jigarporamizni xarakat, yoruglik va xavodan, ya'ni inson xayoti uchun zarur bulgan uchta asosiy narsadan maxrum qilamiz»⁹. E'tibor berilsa, Fitrat bu o'rinda beshikka nisbatan salbiy fikr bildiradi. Savol tugiladi: nega Fitrat o'zbek oila tarbiyasining ming yillik qadriyatiga nisbatan salbiy fikr bildirgandir. Chunki Fitratdan avval xam, keyin xam beshikka nisbatan fikrlar turlicha bo'lgan. Shunisi borki, unga nisbatan fikrlar turlicha bulsa xam, u amaliyotda qullanishda davom etadi. Fitrat tarbiyali tarbiyani zur berib targ'ib qiladi, bunday tarbiyada tarbiyalovchining uzi tarbiyali bulishi lozim. Bu xaqda Fitrat shunday yozadi: «Agar otalarimiz farzandlarini zamon talablariga muvofik tarbiya qilganlarida edi, bugun shunday qiyin axvolga tushmas edik». Bularning barchasi tarbiyachining tarbiyali tarbiya olib borishiga da'vatdir.

Fitrat bola tarbiyasi asoslari xaqida suzlar ekan, Sharq pedagogikasi an'analaridan kelib chiqqan xolda farzand tarbiyasida ko'p ishlar onalar zimmasiga tushushshini ta'kidlaydi. Shu sababli u onalarning savodxon bulishini, sog'liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, Fitrat oilaviy tarbiyada barcha vazifalar onalar zimmasiga tushishini tug'ri kursatadi. Shu sababli u onalar savodxonligiga tuxtalib farzandlarimizning yetuk tarbiya olishiga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz — millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur, deydi. Masalaning ikkinchi tomoni xam bor: «Aks xolda xotinlarimiz erkaklardan xam ko'prok, zaifroq va g'ayratsiz bulganlaridan bolalarimiz xam ularga uxshab—qoladilar.» Diqqat qilinsa, Fitrat tug'ri xulosaga keladi. Bugungi kunda xam oilada nisbatan ayol bola tarbiyasi bilan kuproq mashg'ul. Shu sababli Fitrat ayollarning savodxon bulishini qayta — qayta uqtiradi, bu bilan faqat jamiyat foyda ko'rishiga ishora qiladi. XX asr boshlaridayoq masalaning bu tarika quyilishi juda muxim edi. Bugun biz yuz yillik tajribadan keyin bu xaqiqatni tan oldik. Fitrat zamonasida esa masalaning kun tartibiga kuyilishining o'zi axamiyatlidir. Bugun bizning jamiyatimizda ayollarimiz yuz foiz savodxon. Lekin ularga bola tarbiyasi xaqida maxsus saboq berishga extiyoj bor. Ayollarimiz uzlaridagi tushuncha va ma'lumotlari bola tarbiyasiga tatbiq etishda oqsaydilar.

Fitratning muloxazalariga Qaraganda bola tarbiyasi asoslarida xarakterni shakllantish muxim urin tutadi. U yozadi: «Odamning fe'l va xarakatlari ikki qismga bo'linadi. Birinchi qism, shunday fe'l va xarakatlarkim, bir shaxs yoki bir necha odam (ya'ni millatning bir jamoasi) ga foyda va manfaat keltiradi. Shu fe'lu xarakat «savob ish» deyiladi...Ikkinchi qism, bir shaxs yoki bir necha odamga zarar va ziyon keltiradigan ish va xarakatlar. Ularni «gunox» deydilar». Fitrat bola tarbiyasida ana shunga e'tibor berishni, unda xarakterni shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratishni uqtiradi. Fitratdagi bunday ikkita («savob va gunox»)ga. bulib tarbiya olib borish Sharq pedagogikasiga xos xususiyatdir. Lekin bu urinda bolada xarakterni shakllantirishga Urgu berilishi muximdir. Biz uni Fitratning bola tarbiyasi asoslariga oid beshinchi fikri sifatida qabul qilamiz. Fitrat fikricha, bolada ezgu («savobli») xarakterni shakllantirish uchun uni gunox qilishdan saqlash kerak. «Gunox qilmaslik uchun ikkita asosiy shart lozim ekan, birinchidan, Xudodan qurqish va foydadan zararni farq etish»¹⁰. Agar bolada ilmu aql bulsa u Xudodan qurqadi, ya'ni uzini yomon ishlardan tiyadi. Agar bolada ilmu aql rivojlantirilmasa u joxil buladi va foydani zarardan farq qilmaydi. Demak, Fitrat talqiniga

⁹ Fitrat. Himmat va saboti bo'lmagan millatning haqqi hayoti yo'qdir // "Oyina" jurnali. 1915. №7. — B. 8-9.

¹⁰ Fitrat A. Oila. Fors tilidan Sh.Vohidov tarjiması. -Toshkent:Ma'naviyat, 1998.-B.99.

kura, bolada ezgu xarakterni shakllantirish uchun uni oqu—qorani taniydigan, yaxshi — yomonni farqiga boradigan qilib tarbiyalashga jiddiy e'tibor berish zarur. E'tibor qilinsa, bu urinda bola tarbiyasida qat'iy va ongli nazorat bulishi birinchi uringa chiqmoqda. Inson xarakterini muntazam va uzviy mexnatsiz shakllantirish mumkin emasligi ma'lum bulmokda. Shu ma'noda Fitratning Sharq oila tarbiyasiga monand fikr bildirishi tabiiy xoldir. Fitartning bola tarbiyasi asoslari xakidagi fikrlarida ota onaning, yetimlar va xizmatkorlarning xaq — xuquqlarini ajratib kursatish aloxida urin tutadi. Gap shundaki, bu uch toifaning xuquqlarini joyiga quyish Fitrat nazarida, tarbiyada muxim urin tutadi. Buni adolat tantanasiga rioya qilish deb xam tushuntirish mumkin. Fitrat fikricha, agar farzandni ota—ona yomonlikka da'vat qilsa farzandning bunga itoat etmaslikka xaqqi bor. Ayni paytda, farzand ota-onaning xaq — xuquqlari borligini unutmazligi lozim. Soddarroq aytganda: farzand ota — onasi yomon xulqqa boshlayotgan bulsa, bundan jamoatchilik yordamida muxofazalanishi mumkin. Ayni paytda, ota-ona yaxshilik yulida farzandini tanbex berib nazorat xilib turishga xaq- xuquqi bor. «Agar ota xato yulga kirgan bulsa, farzand otasiga e'tiroz qilib, uni xato yuldan qaytarishi tug`ridir.

INNOVATIVE
ACADEMY